



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoj o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	



TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	208
Yusupova I.R.	
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIIQTISODIY SALOHİYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI	212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА	222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOIYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI	227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi	
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li	
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBIZARLIKLAR TARKIBI	240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR.....	244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich	
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIIY BAHOLASH.....	248
Qurbonov Alisher Boboqulovich	
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES	256
Kamola Bobonarova	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI.....	262
Zohidov Jamshid Botirxonovich	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI

Zohidov Jamshid Botirxonovich

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: achilovaf@gmail.com

ORCID: 0000-0002-8358-5416

Annotatsiya. Mazkur ishda xizmat ko'rsatish korxonalari menejmentida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslari tizimli ravishda tahlil qilingan. Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlarining mazmuni, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshqaruv faoliyatiga ta'siri hamda korxonalarda boshqaruv qarorlarini qabul qilish samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, axborot tizimlari, raqamli platformalar, biznes jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar bazalarini boshqarish va analitik texnologiyalarning xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish korxonalarida zamonaviy menejment tizimini takomillashtirish, boshqaruvning samaradorligini oshirish hamda innovatsion rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish korxonasi, menejment, axborot texnologiyalari, raqamli transformatsiya, axborot tizimi, biznes jarayonlari, avtomatlashtirish, boshqaruv qarorlari, raqamli platforma, innovatsion rivojlanish, samaradorlik, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В данной работе системно проанализированы теоретические основы использования информационных технологий в менеджменте предприятий сферы услуг. Раскрыты содержание процессов цифровой трансформации в сфере услуг, влияние современных информационно-коммуникационных технологий на управленческую деятельность, а также их роль в повышении эффективности принятия управленческих решений на предприятиях. Кроме того, рассмотрено значение информационных систем, цифровых платформ, автоматизации бизнес-процессов, управления базами данных и аналитических технологий в обеспечении конкурентоспособности предприятий сферы услуг. Результаты исследования служат теоретической основой для разработки научно-методических рекомендаций, направленных на совершенствование современной системы менеджмента предприятий сферы услуг, повышение эффективности управления и обеспечение инновационного развития.

Ключевые слова: предприятие сферы услуг, менеджмент, информационные технологии, цифровая трансформация, информационная система, бизнес-процессы, автоматизация, управленческие решения, цифровая платформа, инновационное развитие, эффективность, конкурентоспособность.

Abstract. This paper systematically analyzes the theoretical foundations of the application of information technologies in the management of service enterprises. It examines the essence of digital transformation processes in the service sector, the impact of modern information and communication technologies on management activities, and their role in improving the efficiency of managerial decision-making within enterprises. Furthermore, the study highlights the significance of information systems, digital platforms, business process automation, database management, and analytical technologies in enhancing the competitiveness of service enterprises. The findings provide a theoretical basis for developing scientific and methodological recommendations aimed at improving modern management systems, increasing managerial efficiency, and fostering innovative development in service enterprises.

Keywords: service enterprise, management, information technology, digital transformation, information system, business processes, automation, managerial decision-making, digital platform, innovative development, efficiency, competitiveness.



KIRISH

Jahon iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi barcha tarmoq va sohalar qatori xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash, katta hajmdagi ma'lumotlar (Big Data), narsalar interneti (IoT), blokcheyn texnologiyalari hamda raqamli platformalarning keng joriy etilishi xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqarishning an'anaviy yondashuvlarini tubdan o'zgartirmoqda. Natijada korxonalarning boshqaruv tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini tezkor va asosli qabul qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda xizmatlar sifatini oshirish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biriga aylandi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining muvaffaqiyatli faoliyati ularning ichki boshqaruv tizimi samaradorligi, axborot almashinuvi tezligi, mijozlarga yo'naltirilgan strategiyasi hamda innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etish darajasiga bevosita bog'liqdir. Zamonaviy menejment konsepsiyasida axborot texnologiyalari nafaqat boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish vositasi, balki strategik rivojlanish, raqobatbardoshlikni oshirish, tavakkalchiliklarni kamaytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan xizmat ko'rsatish korxonalari faoliyatida raqamli boshqaruv tizimlarini shakllantirish, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish hamda boshqaruvning zamonaviy usullarini qo'llash zarurati tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiyotdagi ulushi muntazam kengayib borayotganligi, aholining xizmatlarga bo'lgan talabi ortib borayotgani hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida yangi biznes modellarining shakllanishi korxonalar menejmentida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Xususan, elektron tijorat, raqamli marketing, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM), korxona resurslarini rejalashtirish tizimlari (ERP), biznes-analitika, elektron hujjat aylanishi va mobil ilovalarning rivojlanishi boshqaruv samaradorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur texnologiyalar korxonalarga bozor talablarini tezkor tahlil qilish, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda operatsion xarajatlarni optimallashtirish imkonini bermoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish, davlat va xususiy sektor faoliyatiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish hamda xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xizmat ko'rsatish korxonalarida boshqaruv tizimini takomillashtirish, elektron xizmatlarni rivojlantirish, raqamli infratuzilmani kengaytirish va zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish bo'yicha qabul qilinayotgan chora-tadbirlar ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada oshirmoqda.

Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish korxonalarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, ularning menejment tizimiga ta'sirini kompleks baholash, boshqaruvning zamonaviy tamoyillari va raqamli transformatsiya jarayonlarini ilmiy jihatdan asoslash zarurati mavjud. Axborot texnologiyalarining menejment tizimidagi o'rni va ahamiyatini nazariy hamda uslubiy jihatdan yoritish, xizmat ko'rsatish korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish mazkur tadqiqotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolada xizmat ko'rsatish korxonalari menejmentining nazariy asoslari, axborot texnologiyalarining iqtisodiy mazmuni va rivojlanish bosqichlari, menejment tizimida axborot texnologiyalarining tutgan o'rni, ularning boshqaruv jarayonlariga ta'siri hamda xizmat ko'rsatish korxonalarida zamonaviy axborot tizimlarini qo'llashning ilmiy-uslubiy asoslari yoritiladi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini boshqarishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning nazariy yondashuvlari tahlil qilinib, ularni amaliyotga samarali tatbiq etishning konseptual yo'nalishlari asoslab beriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmat ko'rsatish korxonalari menejmentida axborot texnologiyalaridan foydalanish masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli ilmiy yo'nalishlarda keng tadqiq etilgan. Menejment nazariyasi, raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari va xizmatlar marketingi bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining korxonalar boshqaruvi samaradorligini oshirish, biznes jarayonlarini optimallashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash hamda mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Xususan, P. Drucker, M. Porter, P. Kotler, T. Davenport, H. Laudon va J. Laudon kabi olimlarning ilmiy ishlari menejment va axborot texnologiyalarining o'zaro integratsiyasini nazariy jihatdan yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonlik olimlarning ilmiy tadqiqotlarida ham xizmatlar sohasini raqamlashtirish, korxona boshqaruvida axborot tizimlaridan foydalanish, elektron xizmatlarni rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida menejmentni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Biroq xizmat ko'rsatish



korxonalari menejmentida axborot texnologiyalarining nazariy asoslarini kompleks yondashuv asosida tadqiq etish, ularning boshqaruv samaradorligi va raqobatbardoshlikka ta'sirini tizimli baholash bilan bog'liq masalalar hali ham dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarini menejmentini takomillashtirishning nazariy asoslarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot xizmat ko'rsatish korxonalarini menejmentida axborot texnologiyalaridan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy va ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez usullari qo'llanildi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish korxonalarida axborot texnologiyalarining boshqaruv jarayonlariga ta'sirini baholashda iqtisodiy tahlil hamda nazariy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini menejment nazariyasi, raqamli iqtisodiyot, axborot tizimlari va innovatsion boshqaruv konsepsiyalariga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy nashrlar hamda xizmat ko'rsatish sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha mavjud ilmiy-uslubiy yondashuvlar tahlil qilindi. Olingan natijalar xizmat ko'rsatish korxonalarini menejmentini takomillashtirish va zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo'llash bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar

Xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning eng dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan korxonalarda boshqaruv jarayonlarining qay darajada raqamlashtirilganligi va axborot texnologiyalarining amaliyotga joriy etilganlik darajasiga bog'liq. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida korxonalarda boshqaruv faoliyati an'anaviy usullardan raqamli boshqaruv modeliga o'tmoqda. Bunday o'zgarishlar boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonining tezkorligini oshirish, axborot almashinuvini jadallashtirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish korxonalarida axborot texnologiyalarining samarali qo'llanilishi boshqaruvning barcha funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rejalashtirish jarayonida zamonaviy axborot tizimlari korxona faoliyati bo'yicha katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish imkonini beradi. Natijada strategik va operativ rejalar bozor talablari, iste'molchilar ehtiyojlari hamda ichki resurslar holatini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bu esa boshqaruv qarorlarining ilmiy asoslanganligini oshirib, korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tashkillashtirish funksiyasida axborot texnologiyalari korxona bo'linmalari o'rtasida tezkor axborot almashinuvini ta'minlaydi, vazifalar taqsimotini avtomatlashtiradi hamda elektron hujjat aylanishini yo'lga qo'yadi. Korxona resurslarini rejalashtirish tizimlari (ERP), mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM), elektron hujjat aylanishi va bulutli texnologiyalar boshqaruv jarayonlarining shaffofligini oshirib, xodimlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Shu bilan birga, masofaviy boshqaruv va onlayn monitoring imkoniyatlarining kengayishi boshqaruv tizimining moslashuvchanligini ta'minlaydi.

Motivatsiya va inson resurslarini boshqarish jarayonida ham axborot texnologiyalarining o'rni tobora ortib bormoqda. Raqamli platformalar orqali xodimlarning mehnat unumdorligini baholash, malakasini oshirish, elektron o'quv tizimlarini tashkil etish hamda mehnat faoliyati natijalarini monitoring qilish imkoniyatlari kengaydi. Bu esa xodimlarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, ularning mehnatga qiziqishini oshirish va korxonaning intellektual salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Nazorat funksiyasida axborot texnologiyalari real vaqt rejimida korxona faoliyati natijalarini kuzatish, moliyaviy va operatsion ko'rsatkichlarni monitoring qilish, xizmatlar sifati hamda mijozlar qoniqish darajasini baholash imkonini yaratadi. Analitik platformalar va biznes-intellekt vositalari rahbariyatga muammolarni tezkor aniqlash, ularning sabablarini tahlil qilish va asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Bu esa boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish bilan birga, tavakkalchiliklarni kamaytirishga ham xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiya sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasi bilan belgilanadi. Elektron tijorat, mobil ilovalar, onlayn buyurtma va to'lov tizimlari, sun'iy intellekt elementlari, katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalari hamda bulutli xizmatlarning joriy etilishi korxonalarga iste'molchilarning talablarini tezkor aniqlash, shaxsiylashtirilgan xizmatlarni taklif etish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini bermoqda. Natijada mijozlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni shakllantirish, bozor ulushini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun qulay sharoit yaratilmoqda.



Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, axborot texnologiyalarini joriy etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, zamonaviy dasturiy ta'minot va texnik vositalarga investitsiyalarning cheklanganligi, axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq xatarlar hamda yuqori malakali mutaxassislar yetishmasligi xizmat ko'rsatish korxonalarida raqamli boshqaruv tizimini to'liq shakllantirishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli axborot texnologiyalarini joriy etish jarayoni texnik, tashkiliy va iqtisodiy jihatlarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda amalga oshirilishi zarur (1-jadval).

1-jadval¹.

Xizmat ko'rsatish korxonalari menejmentida axborot texnologiyalarining asosiy yo'nalishlari va ularning boshqaruv samaradorligiga ta'siri

Axborot texnologiyasi	Qo'llanilish sohasi	Menejmentdagi vazifasi	Kutilayotgan natija
Korxona resurslarini rejalashtirish tizimi (ERP)	Moliyaviy, moddiy va mehnat resurslarini boshqarish	Resurslarni yagona tizim orqali boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilish	Resurslardan samarali foydalanish, xarajatlarni kamaytirish
Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimi (CRM)	Mijozlar bazasi va xizmat ko'rsatish jarayonlari	Mijozlar ehtiyojini tahlil qilish va xizmatlarni shaxsiylashtirish	Mijozlar qoniqishi va sodiqligini oshirish
Elektron hujjat aylanishi (EDMS)	Ichki boshqaruv va hujjatlar bilan ishlash	Hujjatlarni elektron shaklda yaratish, saqlash va almashish	Boshqaruv tezkorligi va shaffofligini ta'minlash
Bulutli texnologiyalar (Cloud Computing)	Ma'lumotlarni saqlash va masofaviy boshqaruv	Axborotdan istalgan joyda foydalanish va jamoaviy ishlashni tashkil etish	Moslashuvchan boshqaruv va operatsion samaradorlikni oshirish
Biznes-analitika (BI)	Ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash	Boshqaruv qarorlarini analitik ma'lumotlar asosida qabul qilish	Qarorlar sifatini oshirish va tavakkalchiliklarni kamaytirish
Sun'iy intellekt (AI)	Mijozlarga xizmat ko'rsatish va prognozlash	Avtomatlashtirilgan tahlil, chatbotlar va intellektual tavsiyalarni qo'llash	Innovatsion xizmatlarni rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirish
Mobil ilovalar va raqamli platformalar	Xizmatlarni onlayn taqdim etish	Mijozlar bilan uzluksiz aloqa va xizmatlarni masofadan boshqarish	Xizmat ko'rsatish sifati va qulayligini oshirish

O'tkazilgan nazariy tahlillar asosida axborot texnologiyalarining xizmat ko'rsatish korxonalari menejmentidagi o'rni strategik ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Ular boshqaruv jarayonlarini integratsiyalash, ma'lumotlar oqimini samarali boshqarish, boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish hamda xizmat ko'rsatish sifatini yuksaltirishning muhim omili hisoblanadi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalarining qo'llanilishi korxonalarning innovatsion salohiyatini oshirish, raqamli iqtisodiyot talablariga moslashish va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlash imkonini beradi.

Tahlil natijalari xizmat ko'rsatish korxonalarida axborot texnologiyalarini menejment tizimiga kompleks integratsiya qilish boshqaruv samaradorligini oshirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirish hamda korxonalarning barqaror va innovatsion rivojlanishini ta'minlashning muhim sharti ekanligini tasdiqlaydi. Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarida zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish, raqamli boshqaruv infratuzilmasini rivojlantirish, xodimlarning raqamli kompetensiyalarini oshirish va axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish korxonalari menejmentida axborot texnologiyalaridan foydalanish zamonaviy boshqaruv tizimining ajralmas tarkibiy qismi ekanligini ko'rsatdi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilish hamda xizmatlar sifatini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu bois xizmat ko'rsatish korxonalarida axborot texnologiyalarini menejment tizimiga kompleks integratsiya qilish korxonalarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

¹ Muallif tomonidan menejment nazariyasi va zamonaviy axborot texnologiyalariga oid ilmiy adabiyotlar asosida tuzildi.



Tadqiqot davomida axborot texnologiyalarining rejalashtirish, tashkillashtirish, motivatsiya va nazorat kabi menejment funksiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan asoslandi. Zamonaviy axborot tizimlari boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlar oqimini samarali boshqarish, biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda korxona faoliyatining shaffofligini oshirish orqali boshqaruv samaradorligini sezilarli darajada yuksaltiradi. Shuningdek, raqamli platformalar, bulutli texnologiyalar, biznes-analitika vositalari va sun'iy intellekt elementlaridan foydalanish xizmat ko'rsatish korxonalarining innovatsion rivojlanishi hamda mijozlarga yo'naltirilgan boshqaruv modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalarini samarali joriy etish uchun zamonaviy raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta'minlash, ilg'or dasturiy yechimlarni qo'llash va xodimlarning raqamli kompetensiyalarini muntazam oshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda boshqaruvning strategik maqsadlari bilan axborot texnologiyalarini uyg'unlashtirish, korxona faoliyatini tahliliy ma'lumotlar asosida boshqarish va innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish xizmat ko'rsatish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xizmat ko'rsatish korxonalarini menejmentida axborot texnologiyalarining nazariy asoslarini chuqur o'rganish ularning amaliy qo'llanilish samaradorligini oshirish, boshqaruvning zamonaviy modelini shakllantirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini izchil rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Tadqiqot natijalari xizmat ko'rsatish korxonalarida menejment tizimini takomillashtirish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar hamda amaliy ishlanmalarni ishlab chiqishda muhim nazariy va uslubiy manba bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullayev, I. S., & Mullabayev, B. B. (2023). *Necessity and Importance of Regional Policy in Sustainable Development of Regions of the Country*. *International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences*, 17(4), 16–21.
2. Ruzmetov, B., & Baxtiyarov, Sh. *Mintaqani barqaror rivojlanish maqsadlari asosida kompleks rivojlantirish ustuvor yo'nalishlari*. // "O'zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari" xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Buxoro: BuxDU, 2025-yil 14–15-aprel.
3. Xudayberganov, D. T. (2026). Оценка лояльности потребителей бренду и ее влияние на прибыль бизнеса. *Журнал «Маркетинг»*, 1. <https://marketingjournal.uz/index.php/mj/article/view/743>
4. Xudayberganov, D. T., & Achilova, F. K. *Mintaqa iqtisodiyotida xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish yo'nalishlari*. // *Scienceproblems.uz* – Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari elektron jurnali. – Samarqand, 2026. – 6-jild, 3-son. – B. 57–67.
5. Hudayberganov, D. T., Saloxitdinov, Sh. F., Achilova, F. K., Mukhtarov, B. A., Fayzullayeva, S. F., & Yuldasheva, S. Z. (2025). *Possibilities of Assessing Cluster Potential in Regions*. // *Biospectrum 2025: International Conference on Biotechnology and Biological Sciences*. University of Engineering and Management, Kolkata, in collaboration with the University of Iasi, Romania, 10–12 December 2025.
6. Achilova, F. K. *Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini takomillashtirish strategiyasi va dasturlari*. // *O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi jurnali*. – Toshkent, 2026. – 4-son. – B. 57–61.
7. Achilova, F. K. *Mintaqaviy xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishda boshqaruvning samarali mexanizmlari*. // *Agro Ilm jurnali*. – Toshkent, 2026. – № 1(121). – B. 175–176.
8. Achilova, F. K. *Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishini tartibga solish tizimi*. // *Muhandislik & iqtisodiyot* ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal. – Toshkent, 2026. – 2-son. – B. 221–224.
9. Achilova, F. K. *Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishning xorij tajribasi*. // *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi* ilmiy jurnali. – Toshkent, 2026. – 6(01)-son. – B. 139–149.
10. Laudon, K. C., & Laudon, J. P. (2022). *Management Information Systems: Managing the Digital Firm* (17th ed.). Harlow: Pearson. 704 p.
11. Davenport, T. H. (1993). *Process Innovation: Reengineering Work through Information Technology*. Boston: Harvard Business School Press. 352 p.
12. Porter, M. E., & Heppelmann, J. E. (2014). *Harvard Business Review*, 92(11), 64–88.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>